

## SO'Z YASALISHI VA YASAMA SO'ZLAR

Yusupova Durdona

Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7198517>

**Kalit so'zlar:** asos, qo'shimcha, yasama so'z.

Yangi ma'noli so'z hosil bo'lishi so'z yasalishidir! So'z yasalishi lug'aviy ma'noning o'zgarishi asosida vujudga kelib, yasama so'z ko'pincha bir turkumdan boahqa turkumga o'tadi, Shu ma'noda so'z yasash hodisasi so'zning grammatik sohasidan o'zgartiradigan sohasidir. Masalan, gul so'zi ot turkumiga xosligi uchun otga xos ko'plik qo'shimchasini olib turlanadi: gullar, gullarning, gullarga kabi. Bu so'zga "-la" fe'l yasovchi qo'shimchasi qo'shilganda, hosil bo'lgan so'z ko'plik va kelishik qo'shimchalarini olib turlanmaydi, balki tuslanadi. Chunki bu holatda so'z grammatik jihatdan o'zgarib, bir kategoriyadan boshqa kategoriyaga o'tadi.

Tilda so'z yasash vositalari va usullari xilma-xil, asosan 2 turga bo'linadi:

1. Morfologik (affiksatsiya) usuli

2. Sintaktik (kompozitsiya) usuli

O'zak va negizga so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shish bilan yangi so'z yasash morfologik usul bilan so'z yasash deyiladi. So'z yasalishida qo'shimchalar ishtirok etganligi uchun bu usul Affiksatsiya usuli deb ham ataladi. Masalan, "taxta+kash=taxtakash", "bil+im=bilim", "bilim+li=bilimli" kabilar. Ikki yoki undan ortiq so'zlarning o'zaro qo'shilishi natijasida so'z yasalishi Sintaktik usul bilan so'z yasalishi deyiladi. Sintaktik usul bilan qo'shma va juft so'zlar yasaladi va ularning yakka o'zi ko'pincha ma'no anglatmagan bo'ladi, sintaktik usul bilan yangi so'z yasalgandan so'ng yangi ma'noli so'z hosil bo'ladi: "adi-badi", "gidir-bidir" kabilar

Aslida so'z yasalishi nega kerak?! Tilimizdagi so'zlarning o'zi yetarli-ku! -degan savollar tug'ilishi mumkin. Buning javobi esa tilimizning lugat boyligini oshirishdir, bu esa naqadar yaxshi.

So'z yasalishi tilshunoslikning mustaqil sohasi bo'lib so'z yasalishi va so'z yasalish turlarini o'rganadi. So'z yasalishining obyekti asosdir. So'z yasalishi orqali yasama so'z, ya'ni yangi ma'no ifodalovchi so'z hosil bo'ladi. Misol uchun, "gul" so'ziga "-chi" yasovchi qo'shimchasini qo'shish orqali yangi so'z paydo bo'lgan. Asosdan anglashib yangi ma'no ifodalovchi so'zlar yasama so'zlar deyiladi. Masalan: soatsoz, binokor, mehnatkash kabilar.

"Soat" ot so'z turkumidagi ushbu so'zga "-soz" shaxs oti yasovchi qo'shimcha qo'shish orqali asosdan anglashilgan narsaning bajaruvchi shaxsi qolipi hosil bo'lgan. Barcha yasovchi qo'shimcha qo'shilgandek ko'ringan hamma so'zlar ham yasama so'z bo'la olmaydi, masalan ko'p bahs-munozalarga sabab bgan "qishloq"

so'zini oladigan bo'lsak, bu so'zning o'zi bitta asos hisoblanadi. Ya'ni "qish+loq" yoki " qishla+q" tarzida yasalmagan. Yasama so'zning asosiy talabi yasama so'zning asosi hamda hosil bo'lgan yangi so'z o'rtasida o'zoro ma'noviy bog'liqlik bo'lishi zarur. Tarixiy qarashlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, "qishloq" so'zi yasama so'z sifatida qabul qilingan: "qish" ravish so'z turkumiga "-loq" o'rin-joy oti yasovchi qo'shimcha qo'shish orqali hosil qilingan. Shuningdek, shunaqa nazariyalar ham mavjud: Amir Temur qattiq sovuqda butun qo'shini bilan odam izi ko'rinmas joyda qish tugaguncha yashaganligi uchun odam yashaydigan joy ya'ni "qish+loq" tarzida "qishloq" so'zi hosil bo'lgan va bu yerda qishni o'tkazganligi, qishlaganligi uchun "qishla+q" tarzida "qishloq" so'zi hosil bo'lgan va o'sha davrlarda qishloq faqat qishlash uchun hudud bo'lgan va yasama soz sifatida olingan. Ammo, hozirgi tilshunosligimizda bu so'z yakka asos deb qaraladi, buning sababi odamlar qishloqda faqatgina qishda yashamaganligi (qishlamaganligi) ya'ni asos va yangi so'z ortasida ma'noviy bog'liqlik mavjud emasligidir. "Toshloq, qumloq" kabi so'zlarni esa bemalol yasama so'z deb olishimiz mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. B.Umurqulov, S.Rahimov "Hozirgi o'zbek adabiy tili"